

“FIQHUL AKBAR” MATNINING MOVAROUNNAHRLIK SHORIHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17148989>

Abdullo G’ofurov Xikmatulla o’g’li

O’zbekiston xalqaro islomshunoslik

akademiyasi tayanch doktoranti

+998977324149

abdullohmagfur93@gmail.com

Imom Abu Hanifa rahimahullohning “Fiqhul akbar” matniga ko’plab sharhlar yozilgan bo’lib, hozirgi kungacha o’quv yurtlarida o’qib va o’qitilib keladi. Ushbu asarga ko’plab sharhlar bitilgan bo’lib, movarounnahrlik buyuk olim Alouddin Muhammad Buxoriy rahimahullohning sharhi ham alohida o’ringa ega.

Olimning to’liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Alouddin Abu Abdulloh Buxoriy hanafiy bo’lib, hijriy 779, milodiy 1377 yilda turli urush va to’qnashuvlar to’xtagan Movarounnahr diyorida tug’ilib, mana shu yurtda ulg’aydi. Bu davr Amir Temurning Movarounnahr hokimiyatini to’liq qo’lga olib, uni mo’g’ullardan tamomila ozod qilgan hamda yagona kuchli davlatga aylantirgan davrga to’g’ri keladi. Bu davr Movarounnahrning iqtisodiy ahvoli ko’tarilgan, turli obodonchilik ishlari yo’lga qo’yilayotgan va ilm fan tobora taraqqiy etib borayotgan davr edi.

Alouddin Buxoriy ko’plab ustozlardan ta’lim olgan. Dastlab otasi Muhammad ibn Alouddin va tog’asi Alouddin Abdurrahmon Toshloqiylardan ta’lim oladi. Tog’asi mashhur olim Izduddin Iyyiyning shogirdi bo’lgan. Alouddin Buxoriyning eng mashhur ustosi Sa’duddin Taftazoniy hisoblanadi. Sa’duddin Taftazoniy Amir Temurning taklifi bilan Samarqandga kelgan hamda bu yerda dars berish va kitob yozish bilan mashg’ul bo’lgan.

Alouddin Buxoriy fiqh, usul, lug’at, mantiq, jadal va balog’at ilmlari bo’yicha yetuk olim bo’lib yetishgan. Shunga bosib, ulamolar bu zotni: “Alouddin Buxoriy naqliy va aqliy bilimlarni jamlagan, tasavvuf va sulukda darajalarga erishgan hamda adabiyotda mohir bo’lgan”, deb madh qilganlar.

Alouddin Buxoriyning asosiy faoliyati Misrda mamluklar hukmronligi davrida o’tgan. Mamluklar davlati turli millat vakillaridan tashkil topgan edi. Ular ichida arab, turk, cherkas, kurd va mo’g’ul kabilar bo’lgan. Mamluklar davrida davlat boshqaruvchi tizimi isloh qilingan va ilm fan yuksalgan. Mamluklarning davrida jamiyat tabaqalashgan holda bo’lgan. Ya’ni bu jamiyat bir-birlaridan turli

xususiyatlari bilan ajralib turuvchi ko'plab tabaqalardan iborat bo'lgan. Tarixchi Muqriyiy mamluklar davridagi jamiyat vakillarini yetti tabaqaga ajratgan.

Alouddin Buxoriy yashab faoliyat yuritgan vaqtda Misrdagi ijtimoiy holat ana shunday turli ziddiyatlardan xoli bo'lmagan.

Mamluklar davrida ilm fan rivojlanishiga eng katta turtki bo'lgan omillardan biri mamluk sultonlari ilm ahllarini shijoatlantirishar, madrasalar va boshqa ta'lim dargohlari qurilishlariga katta ahamiyat qaratgan edilar. Qurilgan madrasalarning har birida xos mudarrislar dars berishgan. Shuningdek bu madrasalarda tolibi ilmlar foydalanadigan ulkan kutubxonalar tashkil qilingan. Bu kutubxonalar ilm fanning turli sohalariga tegishli kitoblarga juda boy bo'lgan. Kutubxonaning kitoblari madrasi egasi tomonidan jamlangan, yoki kutubxonaga sovg'a qilingan, yo nusxa ko'chirtirilgan yo sotib olib kelib ko'paytirilgan.

Mamluklar davrida oldin yozilgan asarlarga juda ham ko'plab mashhur sharhlar yozilganidan, hatto tarixchilar bu asrni "ixtiro qilish va istinbot qilish asri emas, balki sharh va tafsir asri" deganlar .

Bularning barchasi Alouddin Buxoriy yashagan davrda ilmning va ulamolarning nufuzi naqadar qadrlanganiga dalolat qiladi.

Shu ma'noda Alouddin Buxoriy yashagan asr ulkan ilmiy ishlari bilan butun dunyoga mashhur olimlar yetishib chiqqan asr bo'ldi. Alouddin Buxoriy bilan hamasr bo'lgan ayrim ulamolarning ismlari bilan tanishadigan bo'lsak, o'sha asrda asarlari hozirgi kunimizgacha qo'lma-qo'l o'qib kelinayotgan qanchalab mashhur olimlar yetishib chiqqanlariga guvoh bo'lamiz:

- Sirojiddin Umar ibn Mulqin. 804/1402 yilda vafot etgan;
- Sirojiddin Umar ibn Arslon Bulqiniy. 805/1403 yilda vafot etgan;
- Abdurrahmon ibn Xaldun. 808/1406 yilda vafot etgan;
- Feruzobodiy. (Qomusu-l-muhit muallifi). 817/1414 yilda vafot etgan;
- Abu Zur'a Iroqiy. 826/1423 yilda vafot etgan;
- Shamsiddin ibn Jazariy (qiroat imomi). 833/1430 yilda vafot etgan;
- Burhoniddin Halabiy. 841/1438 yilda vafot etgan;
- Hofiz ibn Nosiriddin Damashqiy. 842/1439 yilda vafot etgan;
- Hofiz Ibn Hajar Asqaloni. 852/1448 yilda vafot etgan;
- Badriddin Ayniy. 855/1451 yilda vafot etgan.
- Kamol ibn Humom. 861/1457 yilda vafot etgan.

Ko'rinib turibdiki, Alouddin Buxoriy butun dunyoga mashhur bo'lgan allomalar bilan bir davrda yashab ijod qilgan va ularning ko'plari bilan ilmiy muloqot olib borgan.

Mazkur ma'lumotlar Alouddin Buxoriy yashagan davrning ijtimoiy holatida turli muammolar bo'lishiga qaramasdan ilm fan rivojiga alohida e'tibor qaratilgan

va buning natijasi o'laroq butun dunyoga taniqli ko'plab olimlar yetishib chiqqan va mashhur asarlar yozilgan.

Ibn Hajar Asqaloni Alouddin Buxoriyning tarjimai holi haqida quyidagilarni yozgan: "Ulamolardan ilm olishga qattiq intilgan hamda aqliy va naqliy ilmlar, mantiq va lug'at ilmlari bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishgan hamda o'z asrining imomiga aylangan".

Alouddin Buxoriy ustoz Sa'duddin Taftazoniy singari ahli sunna val jamoa e'tiqodida, moturidiya va ash'ariya ta'limotlari manhajlarini tahqiq qilish darajasidagi olim bo'lgan. Lekin aslo ahli sunna val jamoa asosi doirasidan chiqmagan. Shuningdek Alouddin Buxoriy tasavvufda ham katta murshidlardan bo'lib, Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh, Ali ibn Ahmad ibn Usmon Munoviy, Ali ibn Muhammad Nuriy va Ibn Tug'ri Bardiy kabi ko'plab ulug' zotlarga ruhiya tarbiya ilmida ustozlik qilgan.

Alouddin Buxoriy yoshlik chog'idan ilm talabida turli o'lkalarga safar qilgan. Dastlab Hindistonga safar qilgan. "Alouddin Buxoriy Hindistonga borganida Kulbarja degan joyda yashaydi. Bu yerda o'zining chuqur ilmi va taqvosi bilan mashhur bo'ladi".

Hindistondan keyin Makkaga safar qiladi va u yerda haramga yaqin joyda turadi. Makkadagi ko'plab olimlar bu zotning ilmlaridan bahramand bo'lishadi.

Makkadan keyin Alouddin Buxoriy Misrga o'tadi va dars berish bilan mashg'ul bo'ladi. Misrda bu zotdan turli mazhablardagi ko'plab olimlar dars olishadi. Alouddin Buxoriyning Misrda obro'si juda baland bo'ladi.

Alouddin Buxoriy Misrdan Damashqqa ko'chib o'tadi va u yerda istiqomat qilib qoladi.

Alouddin Buxoriy Baytul Maqdisga ham boradi va u yerda Iz Maqdisiy va Ibn Arslon kabi olimlar bilan ilmiy bahslar olib boradi. Iz Maqdisiy bilan bir qancha masalalarda bahslashadi. Ibn Arslon shofe'iya mazhabi faqihlaridan bo'lgan va Baytul Maqdisda Alouddin Buxoriy bilan uchrashganida bu zotning ilm ma'rifatlarini e'tirof etib ulug'lagani aytiladi.

Baytul Maqdis safaridan so'ng Alouddin Buxoriy Damashqqa qaytadi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Ibn Hajar Asqaloni Alouddin Buxoriy haqida quyidagilarni aytgan: "Turli ilmlarni bilishda, taqvoda, ibodatda, haqni bildirib bid'atlarni bostirishda va zulmni qaytarishda Alouddin Buxoriydan keyin u zot darajasidagi olimni ko'rmadik".

"Alouddin Buxoriy hanafiy mazhabida bo'lgan. Lekin tadqiqotchilar bu zotning hanafiya va shofe'iya mazhabi qarashlarini tahrir qiladigan darajadagi olim bo'lganini e'tirof etadilar".

Alouddin Buxoriy turli ilmlarni egallaganlikda, masalalarni tahqiq qilishda va islom tarixi bo'yicha yuqori darajadagi olimlardan hisoblanadi. Bu zotning faoliyatlarini kuzatadigan bo'lsak, kitob yozishdan ko'ra ta'lim va amalga ko'p e'tibor qaratgan deyish mumkin. Chunki bu zot juda ham ko'plab shogirdlar qoldirgan. Shogirdlarining ko'p bo'lgani Alouddin Buxoriyning ilmiy darajasini va zamondoshlariga ta'siri qanchalik katta bo'lganini bildiradi.

Olimning hozirda nashr etilgan, yoki nashr etilmasdan qo'lyozma holida turgan hamda ba'zi manbalarda u zotga nisbat berilgan lekin hali-hanuz topilmagan asarlarni jamlaganda umumiy quyidagi sakkizta asari bor:

1. "Fozihatu-l-mulhidin va nasihatu-l-muvahhidin" (Bid'atchilarning kirdikorlarini ochish va tavhid ahliga nasihat qilish). Bu asarini Damashqda Ibn Arabiyga raddiya tarzda yozadi. Bu asar juda mashhur bo'lib ketadi va uni ko'plab mashoyixlar o'qiydi va olimlar hamda tolibi ilmlar dars qilib o'rganadi. Ibrohim ibn Ali, Abu Is'hoq ibn Nur va Ibn Zahira kabi olimlarning bu asarni dars qilib o'rganganlari aytiladi.

2. "Nuzhatu-n-nazor fi kashfi haqiqati-l-insho va-l-xabar" (Insho va xabar haqiqatini ochishdagi dilxush muhokama). Hoji Xalifa "Kashfu-z-zunun an asomil-kutub va-l-funun" asarida ushbu asarning ta'lif etilishi haqida quyidagilarni yozgan: "Fanoriy va Misr ulamolari (الله احمد) jumlasidagi insho va xabar to'g'risida bahs olib boradilar. Bu bahs 823/1420 yilda Misrda bo'ladi. Fanoriy ushbu jumlaning inshoiya deydi va bu qarashni Ibn Humom boshqa ko'plab ulamolar ma'qullashadi.

Ammo bu qarashni Alouddin Buxoriy ma'qullamaydi va bu masala haqida alohida bir risola yozadi va uni "Nuzhatu-n-nazor fi kashfi haqiqati-l-insho va-l-xabar" (insho va xabar haqiqatini ochishdagi dilxush muhokama) deb nomlaydi.

3. "Fatava fi hukmi ijtimai-r-rijali va-n-nisai li-z-zikri" (Erkaklar va ayollarning zikr uchun to'planishlari hukmi haqida fatvo). Bu asarning qo'lyozma nusxasi Riyoz shahrida podshoh Faysalning "Bahslar va islomiy tadqiqotlar markazi"da 263 raqam ostida saqlanmoqda.

4. "Risala fi-r-raddi ala-l-vujudiya" (Vujudiyilarga raddiya haqidagi risola). Alouddin Buxoriyning ushbu asari "Fozihatu-l-mulhidin"dan boshqa risola bo'lib, bu risolani Ismoil Posho "Hadyatu-l-orifin" asarida aytib o'tgan.

5. "Hoshiyatu ala hoshiyati-t-Taftazoniy ala-l-Kashshof" (Taftazoniyning Kashshof hoshiyasiga hoshiya). Bu asarning qo'lyozma nusxasi Qohira shahridagi "Xidiviya" kutubxonasida 167 raqam ostida saqlanadi.

6. "Risala fi-l-mavzu'" (Mavzu' to'g'risida risola). Bu asar haqida Alloma Saxoviy Alouddin Buxoriyning shogirdlaridan bo'lgan Ali ibn Ahmad Qalqashandiyning tarjimai holini bayon qilishda xabar berib, uning Alouddin

Buxoriy huzurida “Fozihatu-l-mulhidin”, “al-Xabar va-l-insho” hamda ushbu risolani o‘qiganini aytgan.

7. “Al-Muljimatu-l-mujassima” (Mujassimalarni jilovlab qo‘yuvchi). Bu asar kichik risola bo‘lib, (75 bet) hamasr olimlardan Said Fuda tahqiqi ostida Bayrutda nashr qilingan.

8. “Risala fi-l-e‘tiqod” (E‘tiqod haqida risola). Bu asar “Aqidatu Alouddin Buxoriy” (Alouddin Buxoriyning aqidasi) nomi bilan ham ataladi. Bu asar ham Said Fuda tahqiqi ostida Quwaytda “Doru-z-Ziyo” maktabasida nashr qilingan. Said Fuda ushbu asarning faqat bir dona nusxasini topganini, bu nusxa Turkiyadagi “Shahid Ali” kutubxonasida 282 raqam ostida saqlanayotganini aytgan. Ushbu yagona qo‘lyozmadan olingan fotonusxa hozirda Iordaniya universitetida 584 raqam ostida saqlanadi.

Alouddin Buxoriy juda ko‘plab mashhur olimlar bilan bir davrda yashagan va ularning ko‘plari bilan qadrdon do‘st bo‘lgan. Misol tariqasida quyidagi olimlarni aytish mumkin:

– Muhammad ibn Abdulvohid ibn Abdulhamid Kamol ibn Humom.

Misr qozisi bo‘lgan Basotiy odamlarni Ibn Arabiyning “Vahdatu-l- vujud” haqidagi gapini tushunmaganlikda ayblaganda Alouddin Buxoriy unga qattiq e‘tiroz bildiradi. Keyinchalik Basotiy Alouddin Buxoriy bilan ilmiy munozara qilmoqchi bo‘lganida unga: “Ikkalangiz munozara qiladigan bo‘lsangiz sizlarga kim ham hakamlilik qilar edi?” deyishganida u: Kamol ibn Humom hakamlilik qiladi, deb javob bergan . Bu gaplardan mazkur olimlarning darajalari juda yuqori bo‘lganini bilish mumkin.

– Ibn Hajar Asqaloni.

Ibn Hajar Asqaloniyni to‘liq ismi sharifi Ahmad ibn Ali ibn Muhammad Kinoniy Asqaloni Misriy bo‘lib, 773/1372 yilda tug‘ilgan. Ibn Hajar ismi bilan mashhur bo‘lgan shofe‘iya mazhabi ulamolaridan. Hajar bu zotning bobolaridan birining laqabi bo‘lgan. “Fathu-l-Boriy bisharhi sahihi-l-Buxoriy”, “Hadyu-s-soriy muqaddimatu fathi-l-Boriy” kabi asarlari bor. 852/1448 yilda vafot etgan.

– Ibn Arslon. Bu zot Ibn Rislun ismi bilan mashhur bo‘lgan. 773/1371 yilda Falastindagi Ramla nomli joyda tug‘ilgan. Shofe‘iya mazhabi faqihlaridan bo‘lib, aqidada ash‘ariylik maktabi vakillaridan bo‘lgan. Alouddin Buxoriy Qudsga kelganida ikkalalari uch marta uchrashib suhbatlashganlari va keyinchalik bir-birlari haqida juda maqtoqli gaplarni aytganlari rivoyat qilingan.

Alouddin Buxoriyning mashhur shogirdlari:

– Qosim ibn Qutlubug‘o Suduniy Misriy. 802/1400 yilda tug‘ilgan. Bu zotning “Tuhfatu-l-ihyo bi-taxriji ahadisi-l-ihyo”, “At-tarjih va-t-tas’hih ala-l-quduriy”,

“Sharhu-l-Muxtasaril manor” va “Sharhu-l-Masobih” kabi asarlari bo’lgan. 879/475 yilda vafot etgan.

Alouddin Buxoriyning ushbu shogirdi u zotning qo’lida tafsir va kalom ilmlaridan saboq olgan.

–Muhammad ibn Muhammad Qavomiddin Rumi. 798/1396 yilda Damashqda tug’ilgan. Bu zot Alouddin Buxoriydan usul ilmidan saboq olgan.

–Mahmud ibn Ubaydulloh. 794/1392 yilda Misrda tug’ilgan. Ibn Ubaydulloh ismi bilan mashhur bo’lgan. Alouddin Buxoriydan “al-Hidoya” va boshqa kitoblardan saboq olgan.

“Risala fi-l-e’tiqod” kitobini tahqiq qilgan Said Fuda Alouddin Buxoriyning qirq beshta mashhur shogirdlarini qisqacha tarjimai hollari bilan bayon qilgan.

Tarixchi olim Saxoviyning bergan xabariga ko’ra Alouddin Buxoriy 841/1438 yilda Damashqning Mizza mavzesida vafot etadi va shu yerga dafn qilinadi.

Mazkur ma’lumotlarga ko’ra Alouddin Buxoriy ko’p shogird chiqargan olimlar sirasiga kiradi, deyish mumkin. Zero olimlarning maqomlari faqatgina ko’p asar yozish bilan emas, balki jamiyatga ta’sirlari, hamasr olimlar bilan aloqalari va manfaatli shogirdlar qoldirganlari bilan ham belgilanadi.